



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN METODLAR

Ahmadjonova Ozoda Alisher qizi

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu tezisda boshlang'ich sinf ona tili darslarida foydalaniladigan metodlar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *ona tili, boshlang'ich ta'lim, interfaol metod, o'qitish, o'quvchi faolligi.*

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan yangilanish va modernizatsiya jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida zamon talablariga javob bera oladigan yetuk mutaxassislarini tayyorlashni, ularda yangi bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni, o'z ustida ishlash va zamonaviy texnologiyalar yutuqlaridan maqsadli foydalana olish mahoratini oshirishni taqozo etmoqda.

Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini hozirgi kun talablari asosida ona tili fanini o'qitish metodikasiga yangicha yondashuvni shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Til – fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his-tuyg'u hamda kechinmalarni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Til jamiyat a'zolarining o'zaro aloqasi uchun xizmat qiladigan asosiy vositadir. Bu vosita qanchalik takomillashsa, fikr shunchalik aniq va ta'sirchan ifodalanadi.

Maktabda ona tilini chuqur o'rganish zarurati tilning mana shu asosiy vazifalaridan kelib chiqadi. Ona tili — nutq, o'qish va yozish sohasidagi ko'nikma hamda malakalar o'quvchilarning o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o'qish ko'nikmalarini egallash bilan birinchi navbatda o'z ona tilini o'rganishi zarur, chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir.

Ona tili boshqa fanlarni o'zlashtirish vositasi hamdir. Jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida o'rin egallaydi.

Hozirgi davrda ta'lim jarayonida o'qitishning yangi, zamonaviy metodlari barcha maktablarda keng qo'llanilmoqda. Ta'limda bu kabi metodlardan foydalanish o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib kelmoqda. Har bir darsning didaktik vazifasiga mos ravishda metodlarni tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini o'zgartirmagan holda, uni o'quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish — ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining oshishiga xizmat qiladi. Ta'lim samaradorligini oshirish o'qituvchidan dars jarayonini oqilona tashkil etishni, o'quvchilarning qiziqishini orttirishni, ularning faolligini doimiy ravishda rag'batlantirib borishni talab etadi.

O'quv materialini kichik qismlarga bo'lib, mazmunini ochishda "aqliy hujum", "kichik guruhlarda ishlash", "bahs-munozara", "muammoli vaziyat", "yo'naltiruvchi matn", "loyiha",



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

“rolli o‘yinlar” kabi metodlarni qo‘llash tavsiya etiladi. Bu kabi metodlarni interfaol (interaktiv) metodlar deb ham ataladi.

Bundan tashqari, dars jarayonida turli metodlardan foydalanish o‘qituvchini izlanishga, o‘quvchini esa o‘z ustida ishlashga, erkin fikrlashga undaydi. Metod shunday tanlanishi kerakki, o‘quvchi o‘zini erkin tuta olsun, fikrini ravon ayta bilsin va mavzuni to‘liq o‘zlashtirsin.

Ma’lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o‘tib, ijobiy natijalar bergan. Quyida ularning ayrimlari haqida so‘z yuritiladi.

“Sirli sandiqcha” metodi: Bu metod o‘quvchining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilar guruhlariga bo‘linadi. O‘qituvchi doskaga 4 ta mavzu nomini yozadi, ammo ular haqida hech qanday ma’lumot bermaydi. Masalan, “So‘z turkumlari” mavzusi o‘tilganda — ot, sifat, son, fe’l kabi.

“Sirli sandiqcha”da esa so‘z turkumlariga oid ma’lumotlar yoki misollar yozilgan bo‘ladi. O‘quvchilar bu ma’lumotlarni tegishli so‘z turkumiga joylashtiradilar. Vazifa yakunlangach, o‘qituvchi natijani tahlil qiladi va rag‘bat kartochkalarini beradi. Eng ko‘p rag‘bat to‘plagan guruh g‘olib deb topiladi.

“Harfni his qilish” metodi: Bu metodda o‘quvchilar tik turgan holatda bo‘ladilar. Eng oxirida turgan o‘quvchi orqasiga o‘qituvchi ruchkaning orqa tomoni bilan harf yoki so‘z yozadi. Keyingi o‘quvchi bu belgini oldingisining orqasiga yozadi va jarayon shu tarzda davom etadi.

Birinci partadagi o‘quvchi orqasiga yozilgan harfni his qilib, doskaga kelib yozadi. Bu metod asosan 4–5-sinf o‘quvchilarida qo‘llaniladi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda esa “dam olish daqiqasi” sifatida foydalanish mumkin. Enerjayzer metodlardan biri sifatida o‘quvchilarning faolligini oshiradi.

“Kim ko‘p so‘z topadi” metodi: Bu metod 3–4-sinflarda qo‘llash uchun maqsadga muvofiqdir. Qirqilgan qog‘ozlarga turli so‘zlar yoziladi. Ikkita yoki bir nechta o‘quvchi navbat bilan bu so‘zlarni aytadi. Qog‘ozdagi so‘zni birinchi bo‘lib topgan o‘quvchi uni oladi. O‘yin yakunida eng ko‘p qog‘oz to‘plagan o‘quvchi rag‘batlantiriladi. Ushbu metod o‘quvchilarning zehnini oshiradi va epchilligini rivojlantiradi.

“Tipratikan” metodi: Bu metod boshqa fanlarda ham qo‘llanishi mumkin. Listga bir nechta tipratikan rasmi chiziladi (yoki kompyuter orqali chiqariladi) va meva hamda sabzavotlarning rasmlari tushirilgan kichik kartochkalar tayyorlanadi.

Meva va sabzavotlar ustiga so‘z turkumlariga oid so‘zlar yoziladi. Har bir tipratikan ustiga esa so‘z turkumi nomi yoziladi. O‘quvchilar bir daqiqa ichida o‘zlariga mos so‘zlarni yig‘ib chiqadilar. Eng ko‘p so‘z to‘plagan o‘quvchi g‘olib deb topiladi.

“Yashirin so‘zni top” metodi: Bu metod asosan 1-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan. Mavzuga oid biror so‘z birikmasi yoki qisqa gap tanlanadi. Uning harflari raqamlanib chiqiladi. Doshkaga stikerlar yordamida raqamlar yopishtiriladi. O‘quvchilar navbat bilan



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2025"

chiqib, raqamlarga mos harflarni yozadilar. Shu tarzda yashirin soʻz topiladi. Bu metod jamoaviy ishlash koʻnikmasini rivojlantiradi.

“Soʻzdan soʻz yasash” metodi: Bu oʻyin oʻquvchilarning soʻz boyligini kengaytirish, mantiqan fikrlashni rivojlantirish va hozirjavoblikni oshirishga xizmat qiladi. Oʻqituvchi doskaga bitta soʻz yozadi, masalan: Oʻzbekiston yoki Zanjir. Oʻquvchilar belgilangan vaqt ichida shu soʻz harflaridan yangi soʻzlar yasaydilar.

Masalan:

Oʻzbekiston – oʻz, bek, oʻn, ek, oʻzbek;

Zanjir – zar, zira, arz, jar, ranj va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion metodlar oʻquvchilarning savodxon boʻlishiga, oʻqituvchining oʻz ustida ishlashiga, dars samaradorligini oshirishga va oʻquvchilarning yangi qobiliyatlarini namoyon qilishiga yordam beradi.

Dars va dam olish daqiqalarida shu kabi metodlardan foydalanish oʻtilgan mavzuni mustahkamlash, yangi mavzuni oʻzlashtirish hamda oʻquvchilarning diqqatini mavzuga qaratishda samarali natija beradi.

Interfaol metodlardan foydalanish oʻquvchilarning fanga boʻlgan qiziqishini oshiradi, ularni erkin fikr bildirishga, boshqalar fikrini hurmat qilishga va oʻz nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshlangʻich taʼlimda ona tili oʻquv qoʻllanma Sh.SH. Djurayeva 17-bet
2. R.Qosimova, Boshlangʻich sinflarda imlosi qiyin soʻzlarni oʻrgatish, T.: 1964
3. I.Qosimova “BOSHLANGʻICH SINFLARIDA ONA TILI DARSLARIDA QOʻLLANILADIGAN METODLAR” “Ilm-fan va taʼlim” ilmiy jurnali 2181-4325 | <https://ilmfanvatalim.uz/> | № 8(23)
4. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). BOSHLANGʻICH TAʼLIMDA OʻQUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 83-87.
5. Ona tili oʻqitish metodikasi oʻquv qoʻllanma Kuranbayeva H.A 4-bet